HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

THE LIFE AND ACTIVITIES OF THE VICTIMS OF REPRESSION

Raximberdiyeva Irodaxon Qosimjon Qizi
Student Of The University Of Uzbekistan State World Language
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23021500

Abstract: This article discusses the lives and activities of our compatriots who became victims of repression as a result of political persecution, unfounded accusations, and pressure from the authoritarian regime in the 20th century. In particular, it examines the educational, creative, and social activities of Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Abdulhamid Cholpon, as well as the process of their repression and the factors that led to it. Through the examples of these individuals, the article analyzes the impact of political repression on national education, literature, enlightenment, and cultural life.

Keywords: victims of repression, political persecution, totalitarian regime, Jadidism, national educational activity, national consciousness, enlightenment, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdulhamid Cholpon.

QATAG'ON QURBONLARINING HAYOTI VA FAOLIYATI

Annotatsiya: Maqolada XX asrdagi siyosiy ta'qiblar, asossiz ayblovlar va mustabid tuzumning bosimi natijasida qatag'on qurboniga aylangan vatandoshlarimizning hayoti va faoliyati haqida so'z yuritiladi. Xususan, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulhamid Cho'lponning ma'rifiy, ijodiy va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, ularning qatag'on qilinish jarayoni va bunga sabab bo'lgan omillar yoritiladi. Mazkur shaxslarning hayoti va faoliyati misolida qatag'onlarning milliy ta'lim, adabiyot, ma'rifat va madaniy hayotga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Qatag'on qurbonlari, siyosiy ta'qib, totalitar tuzum, jadidchilik, milliy-ma'rifiy faoliyat, milliy ong, ma'rifatparvarlik, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon.

ЖИЗНЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЖЕРТВ РЕПРЕССИЙ

Аннотация: В статье рассматриваются жизнь и деятельность наших соотечественников, ставших жертвами репрессий в результате политических преследований, необоснованных обвинений и давления со стороны авторитарного режима в XX веке. В частности, освещаются просветительская, творческая и общественная деятельность Абдуллы Кадыри, Мунавваркори Абдурашидханова и Абдулхамида Чулпана, а также процесс их репрессирования и факторы, послужившие причиной этого. На примере жизни и деятельности данных личностей анализируется влияние репрессий на национальное образование, литературу, просвещение и культурную жизнь.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Ключевые слова: жертвы репрессий, политические преследования, тоталитарный режим, джадидизм, национально-просветительская деятельность, национальное сознание, просветительство, Абдулла Кадыри, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдулхамид Чулпан.

XX asrning 20–30-yillarida kuchaygan siyosiy qatag‘onlar natijasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov kabi milliy-ma’rifiy va siyosiy faoliyat olib borgan ko‘plab vatandoshlarimiz ta’qib va qatag‘onlarga uchradi. Bu davrda xalqning milliy o‘zligini anglashiga, ilm-fan va ma’rifatning rivojlanishiga xizmat qilgan ziyolilar faoliyati turli bahonalar bilan cheklab qo‘yildi. Ayniqsa, jadidchilik harakati vakillari tomonidan ilgari surilgan zamonaviy ta’lim, milliy taraqqiyot, xalqni ilm-ma’rifatga chorlash va milliy ongni yuksaltirish kabi g‘oyalar mustabid tuzumning siyosiy manfaatlariga zid deb baholandi. Qatag‘on siyosati faqatgina ayrim shaxslarning hayoti va taqdiriga emas, balki butun jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘plab olimlar, yozuvchilar, shoirlar, davlat va jamoat arboblari o‘zlarining qarashlari, faoliyati yoki kelib chiqishi sababli ta’qib qilindi. Ularning asarlari nashrdan chiqarildi, nomlari uzoq vaqt davomida tilga olinmadi va ilmiy hamda ijodiy merosidan foydalanish imkoniyati cheklab qo‘yildi. Natijada millatning ko‘p yillik ilmiy, adabiy va ma’rifiy tajribasida katta uzilish yuzaga keldi. Yuqorida ta’kidlanganidek, qatag‘on siyosati millatning ilm-fani, adabiyoti, ma’rifati va ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu siyosiy ta’qiblar natijasida o‘z davrining ilg‘or fikrli, ma’rifatparvar va iste’dodli vakillari turli xil asossiz ayblovlarga duchor bo‘ldilar. Ayrimlari uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilindi, ayrimlari esa og‘ir jazolarga uchradi. Bunday holatlar nafaqat ularning o‘ziga, balki ularning oilalari va yaqinlariga ham katta qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Shunga qaramay, qatag‘on qurbonlari o‘z faoliyati davomida xalqning ma’naviy va madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdilar. Ularning ilmiy, adabiy, pedagogik va ijtimoiy faoliyati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, ularning milliy ta’limni rivojlantirish, yoshlarni ilm olishga undash, ona tiliga va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish borasidagi qarashlari muhim tarixiy meros hisoblanadi. Bugungi kunda qatag‘on qurbonlarining hayoti va ijodini o‘rganish orqali o‘sha davr voqealarini chuqurroq anglash, ularning millat taraqqiyoti yo‘lidagi xizmatlarini xolis baholash imkoniyati yaratilmoqda. Qatag‘on qurbonlari hayotini o‘rganish yosh avlod uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki ularning taqdiri orqali tarixning murakkab va og‘ir davrlarini, ilm-ma’rifat va milliy taraqqiyot yo‘lida qilingan sa’y-harakatlarni anglash mumkin. Ularning boy ilmiy va ijodiy merosini o‘rganish, asarlarini tadqiq etish hamda nomlarini yod etish tarixiy xotirani saqlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Quyida ana shunday qatag‘on qurboniga aylangan buyuk adib, ma’rifatparvar va jamoat arboblarining hayoti, ijodiy faoliyati hamda qatag‘on siyosatiga uchrashi haqida so‘z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abdulla Qodiriy — XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi va o‘zbek romanchiligining asoschilaridan biri. U 1894-yil 10-aprelda Toshkentda tug‘ilgan. Dastlab musulmon va rus-tuzem maktablarida, keyinchalik Abulqosim shayx madrasasida tahsil olgan, 1925–1926-

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

yillarda Moskvadagi adabiyot kursida bilimini oshirgan. Sharq va jahon adabiyotini o‘rganishi uning dunyoqarashi va ijodiy faoliyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qodiriyning ijodiy faoliyati 1910-yillarning o‘rtalaridan boshlangan. Uning “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “To‘y”, “Fikr aylagil” kabi she’rlari, “Baxtsiz kuyov” dramasi va “Juvonboz”, “Uloqda” kabi hikoyalari dastlabki ijod namunalaridir. Bu asarlarida u xalqni ilm-ma’rifatga, uyg‘onishga va fikrlashga chaqirdi. Keyinchalik “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari orqali o‘zbek romanchiligining rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning ijodida milliy ong, ma’rifatparvarlik, millat ozodligi, xalq taqdiri va jamiyatdagi muammolar muhim o‘rin egalladi.

Qodiriyning ijtimoiy va ijodiy faoliyati murakkab siyosiy sharoitda kechdi. U publitsistik maqolalari va hajviy asarlarida jamiyatdagi kamchiliklarni ochiq yoritib, xalqning saviyasi va dunyoqarashini yuksaltirishga intildi. Ayniqsa, uning ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish ruhidagi qarashlari ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. 1926-yilda “Mushtum” jurnalida e’lon qilingan “Yig‘indi gaplar” asari sababli u “aksilinqilobiy harakat”da ayblanib, hibsga olindi va sud qilindi. Qodiriy qisqa muddatdan so‘ng ozod etilgan bo‘lsa-da, tanqidiy ruhdagi ijodidan voz kechmadi. 1930-yillarda siyosiy ta’qiblar kuchayishi bilan Qodiriyning ham faoliyati hukmron tuzumning bosimi ostida qoldi. Uning xalqning milliy o‘zligini anglashiga, ma’rifatga va erkin fikrlashga undovchi qarashlari hamda asarlaridagi ijtimoiy-tanqidiy ruh sovet mafkurasi nuqtayi nazaridan salbiy baholandi. Shu sababli adib siyosiy ta’qibning nishoniga aylandi. 1937-yil 31-dekabrda Abdulla Qodiriy “xalq dushmani” sifatida hibsga olindi. 1938-yil 4-oktabrda esa Cho‘lpon va Fitrat kabi ziyolilar bilan birga qatl etildi. Qodiriy hibsga olingach, uning asarlari “zararli” deb topilib, kutubxonalardan olib tashlandi va ularni o‘qish taqiqlandi.

Qodiriyning qatag‘on qilinishi uning nafaqat yozuvchi, balki ma’rifatparvar va milliy ongni shakllantirishga intilgan ijodkor sifatidagi faoliyati bilan ham bog‘liq edi. U o‘z asarlarida xalqning savodsizligi, jaholat va ijtimoiy muammolarni tanqid qilib, ilm, taraqqiyot va fikrlash zarurligini ilgari surdi. Shu jihatdan uning jasorati siyosiy qarshilikdan ko‘ra, murakkab sharoitda o‘z qarashlarini ijod orqali ochiq ifodalashida namoyon bo‘ladi. Qatag‘on siyosati uning hayotiga barham bergan bo‘lsa-da, adibning asarlari va ma’rifatparvarlik g‘oyalari saqlanib qoldi. 1957-yilda Abdulla Qodiriy rasman oqlandi.[1]

Abdulla Qodiriy singari, millat taraqqiyoti va ma’rifati yo‘lida faoliyat olib borgan yana bir yirik siymo — Munavvarqori Abdurashidxonovdir. U Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, o‘z hayotini xalqni ilm-ma’rifatli qilish, ta’limni rivojlantirish va milliy ongni yuksaltirishga bag‘ishlagan.

Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda tug‘ilgan bo‘lib, dastlab Toshkent va Buxorodagi madrasalarda tahsil olgan. U XX asr boshlaridan boshlab jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan biriga aylandi.

Munavvarqorining asosiy faoliyati xalqni ma’rifatli qilish, ta’lim tizimini yangilash va milliy matbuotni rivojlantirish bilan bog‘liq edi. 1901-yildan boshlab yangi usul maktablarini tashkil etib, ularda zamonaviy ta’lim berishga katta e’tibor qaratdi. Ushbu maktablar uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Tajvid”, “Yer yuzi” kabi darsliklarni yaratdi. Uning darsliklari yangi usuldagi maktablarda keng qo‘llanilib, o‘sha davr ta’limining rivojlanishiga xizmat qildi.

1920-yillarda Munavvarqorining faoliyati tobora siyosiy tus ola boshladi. U Turkistonning milliy manfaatlari va mustaqilligi masalalarini ilgari surdi hamda “Milliy ittihod” va “Milliy istiqlol”

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

kabi yashirin tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Milliy ziyolilarga nisbatan siyosiy bosim kuchayishi natijasida u egallab turgan lavozimlaridan chetlashtirildi. Munavvarqori 1929-yil 6-noyabrda hibsga olindi. Unga sovet hokimiyati tomonidan millatchilik va hukumatga qarshi faoliyat bilan bog‘liq ayblovlar qo‘yildi. Tergov jarayonida unga nisbatan og‘ir sharoit va tazyiqlar qo‘llangan. Manbalarda uning uzoq vaqt yakka tartibda saqlangani va sog‘lig‘i yomonlashganiga qaramay, murojaatlari e’tiborsiz qoldirilgani qayd etiladi. Natijada Munavvarqori Abdurashidxonov 1931-yilda qatag‘on siyosatining qurboni sifatida qatl etildi. Uning qatag‘on qilinishida ma’rifatparvarlik faoliyati bilan bir qatorda milliy manfaatlarni himoya qilgani, Turkistonning siyosiy va milliy mustaqilligi haqidagi qarashlari hamda sovet hokimiyati tomonidan noqonuniy deb baholangan siyosiy faoliyati muhim omil bo‘lgan. Shu tariqa Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti XX asr boshlaridagi Turkiston ma’rifatparvarlik harakati va keyinchalik milliy ziyolilarga nisbatan kuchaygan siyosiy ta’qiblar tarixini aks ettiruvchi muhim misollardan biridir.

Uning faoliyati faqat ta’lim bilan cheklanib qolmadi. Munavvarqori milliy matbuot rivojiga ham katta hissa qo‘shib, “Xurshid”, “Najot”, “Kengash” kabi nashrlarda muharrirlik qildi va xalqni ilm-ma’rifatga, taraqqiyotga undovchi maqolalar yozdi. 1918-yilda Turkiston xalq dorilfununining tashkil etilishida ishtirok etib, ta’lim sohasidagi faoliyatini yanada kengaytirdi.[3]

Yana bir totalitar tuzumning shafqatsiz tazyiqi va asossiz ayblovlari sabab qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgan zamonaviy o‘zbek she’riyatining asoschisi Abdulhamid Cho‘lpondir. Abdulhamid Cho‘lpon — XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, shoir, yozuvchi, dramaturg, publitsist va tarjimonlardan biridir. U 1897-yilda Andijonda tug‘ilgan. Dastlab eski maktab va madrasada, keyinchalik rus-tuzem maktabida tahsil olgan. Sharqona ta’lim bilan bir qatorda rus va Yevropa adabiyoti bilan tanishishi uning dunyoqarashi va ijodiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Cho‘lpon adabiy faoliyatini juda yoshligidan boshlagan. 1914-yildan Toshkentdagi “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan hamkorlik qilib, she’r va maqolalarini nashr ettira boshladi. Uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog‘chasaroydagi gazeta va jurnallarda ham chop etilgan. Dastlabki ijodida ilm-ma’rifat, madaniyat, milliy uyg‘onish va jamiyatdagi muammolarni yoritish muhim o‘rin egallagan. “Qurboni jaholat” va “Do‘xtir Muhammadiyor” kabi hikoyalarida ham ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalariga murojaat qilgan. 1916–1917-yillarda Orenburgda yashab, boshqird hukumati mahkamasida kotib bo‘lib ishlagan. Keyinchalik Toshkentga qaytib, TurkRosTAda faoliyat yuritdi. 1920-yilda Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashdi. Shu yili Fitrat taklifi bilan Buxoroga borib, “Buxoro axbori” gazetasiga rahbarlik qildi. Keyinchalik Toshkentga qaytib, adabiyot va madaniyat sohasidagi faoliyatini davom ettirdi. 1924–1926-yillarda Moskvadagi O‘zbek drama studiyasida faoliyat yurib, teatr san’ati va dramaturgiya rivojiga ham hissa qo‘shdi.[8]

Cho‘lpon faoliyatining keyingi bosqichi siyosiy-mafkuraviy bosim kuchaygan davrga to‘g‘ri keldi. 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab uning ijodi va qarashlariga nisbatan tanqidiy munosabat kuchaydi. Shoir o‘zining ayrim qarashlarini siyosiy muhit talablariga moslashtirishga majbur bo‘lganini ham bildirgan. Shunga qaramay, u ijodiy faoliyatini davom ettirib, she’r, nasr, dramaturgiya va tarjimachilik bilan shug‘ullandi. 1930-yillarda Cho‘lpon Moskvada yashab, SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon sifatida ishladi. 1930-yillarning o‘rtalariga kelib, Cho‘lpon va boshqa milliy ziyolilarga qarshi mafkuraviy bosim yana kuchaydi. Manbalarda 1936-yildan boshlab matbuotda Cho‘lpon va Fitratni keskin tanqid qiluvchi maqolalar ko‘paygani qayd etiladi. 1937-yil aprelida

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Cho‘lpon yozuvchilar yig‘ilishida nutq so‘zlab, o‘zining 1920–1930-yillardagi adabiy va ijtimoiy faoliyati, tarjimachilik ishlari hamda unga nisbatan berilgan tanqidiy baholar haqida fikr bildirgan. Bu davrda uning ijodiga nisbatan “millatchilik” kabi siyosiy ayblovlar ilgari surilgan. Natijada Cho‘lpon qatag‘on siyosatining qurboniga aylandi. U 1937-yilda hibsga olindi va 1938-yil 4-oktabrda qatl etildi. Uning Abdulla Qodiriy va Abdurauf Fitrat kabi milliy ziyolilar bilan bir davrda qatag‘on qilinishi 1937–1938-yillardagi siyosiy repressiyalarning o‘zbek adabiy va ilmiy-madaniy muhitiga ko‘rsatgan ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi. Cho‘lponning qatag‘on qilinishida uning ijodida aks etgan milliy ong, ma’rifat, ozodlik va xalq taqdiri bilan bog‘liq mavzular hamda siyosiy muhit tomonidan “millatchilik” sifatida talqin qilingan qarashlari muhim o‘rin tutgan. Biroq uning hayoti va ijodiga faqat siyosiy ayblovlar orqali baho berish uning adabiy merosini to‘liq yoritmaydi. Cho‘lpon o‘zbek she’riyati, nasri, dramaturgiyasi va tarjima san’atining rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkor sifatida ham muhim tarixiy-adabiy ahamiyatga ega.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga alohida e’tibor qaratib, ularni xalqimizning eng sara vakillari sifatida baholaydi. Davlat rahbari qatag‘on qurbonlari orasida yirik olimlar, adiblar, o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqa ziyolilar bo‘lganini ta’kidlab, ularning xalqning milliy o‘zligini anglashiga va taraqqiyotiga xizmat qilganini qayd etadi. Uning fikricha, ma’rifatparvar ajdodlarimiz xalqimizning ozod va erkin yashashi uchun intilgan hamda ularning hayoti va merosini o‘rganish tarixiy haqiqatni tiklashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Prezident qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish hamda yosh avlodga yetkazish zarurligini ta’kidlaydi.[5,6]

Bahrom Irzayev — “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi bosh ilmiy xodimi, tarixchi — Munavvarqori Abdurashidxonovning butun faoliyati ta’lim, maktab va yoshlar kelajagi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini qayd etadi. Shuningdek, uning fikricha, Munavvarqori ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va uni milliy asosda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Darhaqiqat, Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan maktablar uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Tajvid”, “Yer yuzi” kabi darsliklarning yaratilgani uning ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lida katta sa’y-harakat qilganining yaqqol dalilidir.[7]

Bahodirjon Rahmonov — Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti dekani, filolog — jadidlarning ilmiy va badiiy merosi milliy uyg‘onish hamda adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin tutganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniy kabi jadidlar o‘zlarining ilmiy va badiiy asarlari orqali millat ozodligi va hurligi g‘oyalarini ilgari surganlar. Shuningdek, ular yaratgan boy adabiy meros o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Darhaqiqat, jadidlarning asarlari va ma’rifiy faoliyati xalqning milliy ongini yuksaltirish, ilm-ma’rifatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan.[3]

Xulosa

XX asrning 20–30-yillaridagi qatag‘onlar o‘zbek xalqining ilm-fani, ta’limi, adabiyoti, madaniyati va ijtimoiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan murakkab tarixiy jarayonlardan biridir. Mazkur davrda millatning ma’naviy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qilgan ko‘plab ziyolilar turli ayblovlar

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

va ta’qiblarga duchor bo‘ldilar. Ularning qatag‘on qilinishi nafaqat ayrim insonlarning hayotiga, balki xalqning ilmiy, adabiy va ma’rifiy rivojiga ham jiddiy zarar yetkazdi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho‘lponning hayoti va faoliyati misolida qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ziyolilarning xalq taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Munavvarqori ta’lim va ma’rifatni rivojlantirish, yangi usul maktablarini tashkil etish hamda milliy matbuotni rivojlantirishga xizmat qilgan bo‘lsa, Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligi va milliy adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Abdulhamid Cho‘lpon esa she’riyat, nasr, dramaturgiya, publitsistika va tarjimachilik orqali milliy ong va ma’naviy uyg‘onish jarayonining rivojiga xizmat qildi.

Ularning faoliyatidagi yo‘nalishlar turlicha bo‘lsa-da, uchala siymoni xalqning ilm-ma’rifatli bo‘lishi, milliy o‘zligini anglashi va ma’naviy taraqqiy etishiga bo‘lgan intilish birlashtiradi. Ularning hayoti qatag‘on davrining nafaqat siyosiy, balki ilmiy, madaniy va ma’naviy oqibatlarini ham ko‘rsatib beradi. Shu sababli qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini o‘rganish tarixiy voqealarni bilish bilangina cheklanmay, ularning boy ilmiy va adabiy merosini kelajak avlodga yetkazish uchun ham muhimdir.

Bugungi kunda qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash, ularning faoliyati va merosini chuqur o‘rganish tarixiy xotirani mustahkamlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho‘lpon kabi fidoyi ziyolilarning hayoti va ijodini o‘rganish yosh avlodga ilm, ma’rifat, milliy o‘zlik va Vatanga xizmat qilish kabi qadriyatlarning ahamiyatini anglashga yordam beradi. Ularning merosi bugungi avlod uchun ham ilmiy, ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qodiriy (1894–1938). Ziyouz.
2. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/abdulla-qodiriy-1894-1938
3. Abdulhamid Cho‘lpon (1897–1938). Ziyouz.
4. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938
5. https://uza.uz/oz/posts/jadid-bobolar-xotirasi-ochmas-chiroqdir_798706
6. Munavvar qori Abdurashidxonov (1878–1931). Ziyouz.
7. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/munavvar-qori-abdurashidxonov-1878-1931
8. Shavkat Mirziyoyev. “Agar ular qatag‘on qilinmaganida, buyuk ishlarni amalga oshirgan bo‘lar edi”.
9. https://www.president.uz/oz/lists/view/3821
10. Shavkat Mirziyoyev. “Mustaqillikka erishish oson bo‘lmagan”.
11. https://president.uz/oz/lists/view/5478
12. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA). “Maktab, yoshlar kelajagi, ta’lim, millat taqdiri Munavvarqori hayoting mazmuni edi”.
13. https://uza.uz/oz/posts/maktab-yoshlar-kelajagi-talim-millat-taqdiri-munavvarqori-hayoting-mazmuni-edi_540397
14. Tafakkur. “Abdulhamid Cho‘lpon haqida”.
15. https://tafakkur.net/abdulhamid-cholpon.haqida